

**TASVIR VA IFODA VOSITALARINING BADIY TARJIMADA BERILISHI
(JEYN OSTINNING " ANDISHA VA G'URUR" ROMANI MISOLIDA).**

Nizomitdinova Dilbaroy

Turon universiteti Andijon filiali

Ingiliz tili filologiyasi 1-kurs

103- guruh talabasi

Email: dilbarnizomitdinova@gmail.com

Ilmiy rahbar: I.X.Mirzayeva

**MAQOLA
MALUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 20.02.2026

Revised: 21.02.2026

Accepted: 22.02.2026

KALIT SO'ZLAR:

Jeyn Ostin, badiiy tasvir vositalari, badiiy tarjima, o'xshatish, istiora, kinoya, metafera

Mazkur maqola Jeyn Ostinning "Andisha va G'urur" romani badiiy tasvir va ifoda vositalarining o'zbek tiliga qilingan tarjimasidagi o'rnini tahlil qilishga bag'ishlangan. Maqolada badiiy tasvir va ifoda vositalarining turlari hamda ularning asardagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, ular badiiy matnda butunlikni tashkil etishi, tasvirlanayotgan voqea-hodisalarini yanada bo'rttirib asl nusxasi va o'zbekcha tarjimasini qiyosiy tahlil qilingan. Tahlil davomida "o'xshatish," "jonlashtirish" va "yopiq o'xshatish" (istiora) kabi san'atlarning tarjimada qay darajada saqlagani aniqlangan. Maqola, tarjimada so'zlarning emas, balki ma'no va badiiy ta'sirining ustuvor ekanligini ko'rsatgan. Tadqiqotning xulosasi, tarjimaning yuqori badiiy saviyada ekanligidan dalolat beradi va asl asar ruhini to'liq aks ettirganini isbotlaydi.

Kirish: O'z vaqtida A.Fitrat: " San'at lug'atda hunar demakdirkim, bir narsani yaxshi ishlab chiqarishdan iboratdir" deb yozgan edi. Bir qarashda Fitrat san'at so'ziga shunchaki tarif berganday ko'rinadi, ammo e'tibor bilan qaralsa Olim " yaxshi" so'ziga urg'u bergan va

unga juda katta ma'no yuklamoqda. San'atni keng ma'noda ikki qismga ajratishimiz mumkin. Bunga amaliy va badiiy san'at. Amaliy san'atga qo'l mehnati bilan yaratilgan narsalarga aytishimiz mumkin. Badiiy san'at - bu inson ruhiyatini, his-tuyg'ularini va hayot manzaralarini go'zal tasvir orqali yorituvchi ijodiy kuchdir." Oddiy bir hikoyani badiiy san'atsiz aytilsa eshitgan odamga ta'sir etmasligi, larzaga solmasligi mumkin Agar uni badiiy san'atdan mohirona foydalanib ifodalansa " yuragi tosh" inson ham ta'sirlanishi, ko'ziga yosh keltira oladi. Badiiy adabiyot jamiyatda katta o'rin egallaydi. Badiiy san'atdan mohirona foydalanib ko'p yozuvchila bir millatni tarixini, urf- odatini, turmush tarzi haqida juda chiroyli yetkazib beradi.

Asosiy: Badiiy adabiyot taraqqiyotida badiiy tarjima ham muhim o'rin egallaydi. Chunki bir tilda yaratilgan asarni boshqa tilga tarjima qilish oddiy so'zlarni almashtirish emas, balki mas'uliyatli ijodiy jarayondir. Agar tarjimon asarni so'zma-so'z yoki yuzaki tarjima qilsa, asarning asl mohiyati va ichki ruhi yo'qolib qolishi mumkin. Natijada asar o'z ta'sir kuchini yo'qotadi.

Shuning uchun tarjimon o'z tilining badiiy imkoniyatlaridan to'g'ri va o'rinli foydalanishi kerak. U asardagi obrazlilikni va muallifning ohangini saqlab qolishga harakat qilishi zarur.

Masalan, Jeyn Ostinning "Andisha va g'urur" asaridagi: "but Elizabeth still saw superciliousness in their treatment of everybody..." jumlasida "superciliousness" so'zi yuqoridan qarash, kibrlanish ma'nosini bildiradi. Tarjimada bu "osmondan kelib qarash" tarzida berilgan. Bu yerda tarjimon aynan o'zbek tilidagi obrazli ifodadan foydalangan. Shuningdek, "could not like" iborasining "hazm qila olmayotgan" deb berilishi qahramonning ichki noroziligini kuchliroq ko'rsatadi.

Maqsad va vazifasi: Jeyn Ostinning " Andisha va G'urur" asaridagi badiiy tasvir vositalarini aniqlash, aniqlangan badiiy tasvir va ifoda vositalarini turlarga ajratish, aniqlangan tasvir va ifoda vositalarini tarjimada qay darajada ko'rsatib berganligini aniqlash bu maqolani asosiy maqsadi hisoblanadi

Usullar: Jeyn Ostning "Andisha va G'urur" asarining asl nusxasi va o'zbekcha tarjimasi qiyoslash va tahlil qilish usulidan foydalaniladi

Tadqiqot manbasi: Jeyn Ostinning "Andisha va G'urur" asari maqolaning tadqiqot manbasi hisoblanadi

Tadqiqot obyekti: tadqiqotning asosiy obyekti sifatida Jeyn Ostning Andisha va G'urur asaridagi tasvir va ifoda vositalarini va uning tarjimada aks etishi hisoblanadi. Ya'ni

tarjimada asl nusxadagi tasvir va ifoda vositalarini qay darajada berilganligi o'rganib chiqiladi.

Natija va mulohaza:

"but Elizabeth still saw superciliousness in their treatment of everybody, hardly excepting even her sister, and could not like them."

"Osmondan kelib qarashlarini hazm qila olmayotgan Elizabet ularning fikrlarini sovuqqina qabul qildi"

Bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilinyotganda badiiy san'atning go'zalligi, so'zning o'z o'rnida chiroyli holatda foydalanishning isboti.

Xulosa: Badiiy tarjima — bu oddiy so'zlarni almashtirish emas, balki muallifning ruhini, ohangini va tasvir uslubini saqlab, boshqa tilga etkazish san'atidir. Jeyn Ostinning "Andisha va G'urur" asaridagi tahlil shuni ko'rsatadiki, tarjimon o'zbek tilidagi obrazli ifodalar, badiiy tasvir vositalari va ifoda uslublarini to'g'ri tanlab, qahramonlarning ichki hissiyotlarini aniq va ta'sirli yetkazishi mumkin. Shu tariqa, badiiy tarjima nafaqat asarning ma'nosini, balki uning go'zalligini va ta'sirchanligini ham boshqa til o'quvchisiga yetkazishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, badiiy tarjima millatlararo madaniy va adabiy aloqani mustahkamlash, boshqa xalqning adabiyotini chuqurroq tushunish imkonini yaratadi, bu esa badiiy asarlarning jamiyatdagi ahamiyatini yanada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari" Dilmurod Quronov – filologiya fanlari doktori, adabiyotshunoslik bo'yicha professor.
2. Jeyn Ostin. Pride and Prejudice. London: T. Egerton, 1813.
3. Jeyn Ostin. Andisha va G'urur (O'zbekcha tarjima). Toshkent: Sharq, 2010
4. <http://Ziyo.uz>
5. Iroda Hamdamovna "Badiiy adabiyot san'at turi sifatida" ma'ruzasi.